

Energetika vazirligida davlat fuqarolik
xizmati lavozimini egallash uchun tanlov
o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomga
1-ilova

**Energetika vazirligi markaziy apparatiga
ishga qabul qilinadigan nomzodlarga qo'yiladigan
MALAKA TALABLARI**

Lavozim nomi	Ma'lumotga oid talablar	Mehnat faoliyatiga oid talablar <i>(Vazirlikdagi tavsiya etilayotgan faoliyat yo'nalishi va soha xususiyatidan kelib chiquvchi vazifa va lavozimlarda)</i>	Bilim va ko'nikmalariga oid talablar
Vazir maslahatchisi	Lavozim yo'nalishi va funksional vazifalariga mos keluvchi oliy ma'lumotli O'zbekiston Respublikasining fuqarosi <i>(magistratura, ilmiy darajaga egalik afzallik beradi)</i>	Umumiy ish tajribasi kamida 8 yillik ish tajribasi , shu jumladan kamida 5 yil rahbarlik lavozimlarida muvaffaqiyatli ishlagan bo'lishi lozim	Lavozim yo'nalishi va funksional vazifalariga mos keluvchi bilim va ko'nikmalarga, energetika sohasi va vazirlik faoliyatiga oid normativ-huquqiy hujjatlar haqida bilimlarga ega bo'lishi, davlat tili va xorijiy tillarni bilishi
Vazir kotibiyati boshlig'i		Umumiy ish tajribasi kamida 5 yillik ish tajribasi , shu jumladan kamida 3 yil rahbarlik lavozimlarida muvaffaqiyatli ishlagan bo'lishi lozim	
Boshqarma boshlig'i		Umumiy ish tajribasi kamida 5 yillik ish tajribasi , shu jumladan kamida 1 yil rahbarlik lavozimlarida muvaffaqiyatli ishlagan bo'lishi lozim	
Boshqarma boshlig'i o'rinbosari		5 yildan kam bo'lmagan muddat ishchanlik, tashabbuskorlik bilan samarali faoliyat olib borgan bo'lishi lozim	
Bo'lim boshlig'i		3 yildan kam bo'lmagan muddat ishchanlik, tashabbuskorlik bilan samarali faoliyat olib borgan bo'lishi lozim	
Xizmat boshlig'i			
Ishlar boshqaruvchisi			
Mustaqil bo'lim boshlig'iga tenglashtirilgan bosh mutaxassis			
Bosh mutaxassis			
Yetakchi mutaxassis			

Yuqori professional tayyorgarlikka yoki maxsus bilimlarga ega bo'lgan, ammo mazkur Malaka talablarida o'rnatilgan zaruriy ish stajiga ega bo'lmagan shaxslar Energetika vaziri qaroriga ko'ra ishga qabul qilinishi mumkin.

Energetika vazirligi huzuridagi Yoqilg'i-energetika sohasini isloh qilish va davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish bo'yicha loyiha ofisiga ishga qabul qilinadigan nomzodlarga qo'yiladigan MALAKA TALABLARI

Lavozim nomi	Ma'lumotga oid talablar	Mehnat faoliyatiga oid talablar <i>(Tavsiya etilayotgan faoliyat yo'nalishi va soha xususiyatidan kelib chiquvchi vazifa va lavozimlarda)</i>	Bilim va ko'nikmalariga oid talablar
Direktor	Lavozim yo'nalishi va funksional vazifalariga mos keluvchi oliy ma'lumotli O'zbekiston Respublikasining fuqarosi <i>(magistratura, ilmiy darajaga egalik afzallik beradi)</i>	Umumiy ish tajribasi kamida 8 yillik ish tajribasi , shu jumladan kamida 3 yil rahbarlik lavozimlarida muvaffaqiyatli ishlagan bo'lishi lozim	Lavozim yo'nalishi va funksional vazifalariga mos keluvchi bilim va ko'nikmalarga, energetika sohasi va vazirlik faoliyatiga oid normativ-huquqiy hujjatlar haqida bilimlarga ega bo'lishi, davlat tili va xorijiy tillarni bilishi
Direktor o'rinbosari		Umumiy ish tajribasi kamida 5 yillik ish tajribasi , shu jumladan kamida 1 yil rahbarlik lavozimlarida muvaffaqiyatli ishlagan bo'lishi lozim	
Boshqarma boshlig'i		5 yildan kam bo'lmagan muddat ishchanlik, tashabbuskorlik bilan samarali faoliyat olib borgan bo'lishi lozim	
Boshqarma boshlig'i o'rinbosari		3 yildan kam bo'lmagan muddat ishchanlik, tashabbuskorlik bilan samarali faoliyat olib borgan bo'lishi lozim	
Bo'lim boshlig'i		1 yildan kam bo'lmagan muddat ishchanlik, tashabbuskorlik bilan samarali faoliyat olib borgan bo'lishi lozim	
Bosh mutaxassis			
Yuriskonsult			
Yetakchi mutaxassis			
Mutaxassis			

Yuqori professional tayyorgarlikka yoki maxsus bilimlarga ega bo'lgan, ammo mazkur Malaka talablarida o'rnatilgan zaruriy ish stajiga ega bo'lmagan shaxslar Energetika vaziri bilan kelishilgan holda Ofis direktori qaroriga ko'ra ishga qabul qilinishi mumkin.

**Tanlov o'tkazish tartibi tatbiq qilinmaydigan davlat fuqarolik
xizmati lavozimlari
RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis palatalari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi va Vazirlar Mahkamasi tomonidan tayinlanadigan (saylanadigan) yoki ular bilan kelishiladigan lavozimlar.
2. Davlat fuqarolik xizmati tatbiq qilinadigan davlat organlari va tashkilotlari ro'yxatiga kiritilgan Milliy darajadagi tashkilotlardagi lavozimlar.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi, Vazirlar Mahkamasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi tashkilotlarda, shuningdek, Milliy kadrlar zaxirasi shakllantiriladigan yoki **"1-darajali xizmatchi" va undan yuqori malaka darajasi belgilangan lavozimlarda faoliyat ko'rsatgan** (oxirgi ish joyi bo'lgan) davlat fuqarolik xizmatchilari tomonidan Davlat xizmatini rivojlantirish agentligining yo'llanmasi asosida egallanadigan lavozimlar.
4. **O'zbekiston Respublikasining xorijdagi vakolatxonalari va konsullik muassasalari hamda O'zbekiston Respublikasining xalqaro tashkilotlar huzuridagi missiyalari va vakolatxonalaridagi** lavozimlar.
5. Davlat zaxiralarini boshqarish uchun maxsus vakil qilingan hamda **shaxsga doir ma'lumotlar sohasidagi vakolatli davlat organlarining** lavozimlari.
6. Milliy kadrlar zaxirasidan tayinlanishi belgilangan lavozimlar.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi **Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasining magistratura bosqichi hamda maxsus qayta tayyorlash kurslari bitiruvchilari** uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi tomonidan taqsimlangan lavozimlar.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Istiqbolli kadrlarni tayyorlash bo'yicha **"El-yurt umidi" jamg'armasining bakalavriat, magistratura va doktorantura dasturlari bo'yicha ta'lim olgan stipendiatlar uchun belgilangan tartibda taqsimlangan yoki qayta taqsimlangan** lavozimlar.
9. Salohiyatli kadrlar zaxirasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi **Davlat xizmati rivojlantirish agentligi tomonidan taqsimlangan** lavozimlar.
10. Oliy ta'lim tashkilotini tamomlagan kundan e'tiboran **uch yil ichida birinchi marta davlat fuqarolik xizmatiga kirayotgan yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan yoshlar** tomonidan egallanadigan lavozimlar.

11. **Nogironligi bo'lgan shaxslar uchun kvotalangan lavozimlar.**
12. **Vazirlik tizimida davlat fuqarolik xizmatchisi o'tkaziladigan teng yoki quyi lavozimlar.**
13. **Rotatsiya tartibida egallanadigan teng lavozimlar.**
14. **Qonunchilikka muvofiq oldingi lavozimni yoki unga teng bo'lgan lavozimni taqdim etish kafolatlangan hamda sud qarori bilan ishga (lavozimga) tiklangan shaxslar tomonidan egallanadigan lavozimlar.**